

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil yanvar-sentyabr

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **6,4 foizga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **1,2 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar **1,7 barobarga ko'proq**


Joriy yilning 9 oy yakuni bo'yicha Respublikada 32,8 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34,3 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,8 foizga kamaygan hamda ularning soni 18,8 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.


Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 6,4 foiz (17,1 ming birlik) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 285,5 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (21,1 foiz), Andijon (9,1 foiz), Toshkent (9,3 foiz) va Farg'ona (8,9 foiz) viloyatlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, (%)




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,3 foizni tashkil etgan, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,7 foizni tashkil etganligini korsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1,2 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,4 foiz savdoda, 17,0 foiz sanoatda, 8,5 foiz qurilishda, 7,3 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,0 foiz yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,2 foiz tashish va saqlash, 2,3 foiz axborot va aloqa, 2,0 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,3 foiz boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda boshqa faoliyat turlarida (-1,1 f.p.), savdoda (-0,5 f.p.), axborot va aloqada (-0,1 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,9 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,5 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,3 f.p.), shuningdek tashish va saqlash hamda qurilish (+0,2 f.p. dan) faoliyat turlarida ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) (%)



Davlat statistika qo'mitasi
Statistik registrarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul:

S.Begmatov
(0371) 230-80-91